

**BO'LAJAK TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH EHTYOJLARI VA ZARURATI****ПОТРЕБНОСТИ И НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ****NEEDS AND THE NEED FOR DEVELOPMENT MEDIA LITERACY OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION****Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti rektori pedagogika fanlari doktori, professor**Raxmatov Odiljon Raxmonberdiyevich²**²Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi**Annotatsiya**

XXI asr axborot texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlar asri hisoblanadi. Shu munosabati bilan jamiyat orasida keng tarqalib va axborotlarni tez qabul qilish, jo'natish, ijtimoiy tarmoqlarning ommaviy madaniyatini yetkazish bo'yicha qulay jihat bo'lib kelayotgan ommaviy media hisoblanadi. Bundan tashqari axborot savodxonlik o'qituvchilar uchun o'quvchilarni bo'lajak texnologik ta'lim bo'yicha bilimlarini oshirishdagi foydalar, ijtimoiy tarmoq orqali bilimlarni tarqatish, va yangi texnologiyalar orqali o'qitishning qulayliklari haqida ma'lumot beradigan eng to'g'ri variant bu mass media ekanligini o'rgatishdagi eng zarur jihat hisoblanadi. Shu bilan birga maqolada, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning o'zini rivojlantirishda media vositalarining ahamiyatini, ularni qanday samarali ishlatishni va ta'lim jarayonida qanday muvofiqshatirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

XXI век – век информационных технологий и социальных сетей. В связи с этим средства массовой информации получают широкое распространение в обществе и становятся удобным способом быстрого получения и отправки информации, передачи массовой культуры социальных сетей. Кроме того, информационная грамотность необходима учителям, чтобы рассказать учащимся о преимуществах будущего технологического образования, распространении знаний через социальные сети и удобстве обучения с помощью новых технологий. При этом в статье представлена информация о значении медиаинструментов в саморазвитии будущих учителей технологического образования, о том, как их эффективно использовать и как координировать в образовательном процессе.

Abstract

The 21st century is the age of information technologies and social networks. In this regard, mass media is widely spread among the society and is becoming a convenient aspect of receiving and sending information quickly, conveying the mass culture of social networks. In addition, information literacy is essential for teachers to teach students about the benefits of future technology education, the dissemination of knowledge through social networks, and the convenience of teaching through new technologies. is an aspect. At the same time, the article provides information about the importance of media tools in the self-development of future technological education teachers, how to use them effectively, and how to coordinate them in the educational process.

Kalit so'zlar: mass media, globallashuv, ommaviy axborot vositalari (OAV), axborot savodxonligi, ijtimoiy tarmoq, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati.

Ключевые слова: средства массовой информации, глобализация, средства массовой информации (СМИ), информационная грамотность, социальная сеть, информационная безопасность, информационная культура.

Key words: mass media, globalization, mass media (media), information literacy, social network, information security, information culture.

KIRISH

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish tizimi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bog'liq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq ko'rinadi: Didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik

vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi.

Jamiyatning barcha jabhalarini keng ko'lamda egallagan kommunikatsiya vositalari insoniyat rivojlanishining yangi davrini boshlab berdi. Media ta'sirning ko'lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalarining insoniyat hayotiga allaqachon kirib borganligi, yosh chegarasidan qat'iy nazar kundalik turmushning axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmas darajada muhim elementiga aylanganligi ko'p munozaralarga sabab bo'lmoqda. Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlarning uzatilishi XXI asrga kelib, "Mediasavodxonlik" tushunchasini keng qamrovli tadqiqot obyekti sifatida shakllantirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Media va axborot savodxonligi – «soyabon», ya'ni bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YUNESKO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur. «Media» atamasi (lotincha - medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Demak, axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish jarayonida vujudga keladigan salbiy ta'sirlar, tajovuzlarga qarshi tura oladigan shaxsni tarbiyalash bugungi kun uchun juda muhim hisoblanadi.

Shu bilan, birga boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzda tavsiflar berilganini ko'ramiz. «Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo'ljallangan ko'ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo'naltirilgan ko'p ongli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya vositasidir». Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o'zagida aynan ushbu tavsifni ko'radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi".

NATIJA VA MUHOKAMA

Fikrimizcha, media ta'sirida oladigan ma'lumotni qayta ishlay olish, mantiqiy va analitik tahlil qilib ko'rish, uning yashirin aks ta'sirini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish sifatida mediamadaniyat nafaqat jurnalistlar, OAV xodimlari balki, bo'lajak o'qituvchilarga ham juda kerakli sifat hisoblanadi. Chunki ular ham boshqa tillarni o'rganuvchi va o'rgatuvchi sifatida axborotni o'zlashtirish, uni o'rgatish bilan ham shug'ullanadi.

Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e'tirof etadi.

Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Demak, media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Yuqoridagi mulohazalar asosida mediamadaniyatga quyidagicha mualliflik tarifni shakllantirish mumkin: Mediasavodxonlik — turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi. Aqlli yigit-qizlarning o'z himoya qobig'i, «zirh»i bo'ladi. Ular media mahsulotlarni o'z «ma'naviy filtr»i (mafkuraviy immuniteti) orqali ko'ra olishadi, o'qib, tomosha qilishadi. Mediamatnlardagi targ'ibot-tashviqotni, biryoqlamalikni va buning sabablarini, ma'lumot tarqatuvchining niyatlarini ko'rib turishadi. Bunday mediamadaniyat media mahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida informatsion madaniyatni mediasavodxonlik vositasida rivojlantirish uchun oliy texnologik ta'limdagi "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati", "Robototexnika asoslari", "Texnologiya ta'limi asoslari" va "Texnologik ta'limda multimedia usullarini qo'llanilishi" fanlarini axborot kompetentligini rivojlantirish, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va informatsion madaniyatni media vositalar asosida takomillshatirishga yo'naltirilgan metodik asoslarini yaratish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Texnologik ta'limda "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani 1-bosqichning 1-semestrda o'tiladi va u talabalarda texnologik ta'lim jarayonida axborotlar bilan ishlash, informatsion bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga axborot madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarga bugungi kundagi zamonaviy media savodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoq, inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu texnologiya foydalanuvchilarini shartli tarzda ikki toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifa shaxslar, internet va media olamning ijobiy jihatidan unumli foydalanib, internet va axborot texnologiyalar jamiyat taraqqiyotiga samarali hissa qo'shadi deb hisoblaydi. Ikkinchi toifa esa, axborot va ijtimoiy tarmoqlardan turli yolg'on va tahdid kabi axborot tarqatishda foydalanib, maishiy masalalar doirasida o'ralashib qolganlardir. Jumladan, XX asrda xali internet rivojlanmagan vaqtda axborot taqchilligi mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda, jamiyatda esa axborot oqimi ko'paygani tufayli, ilmiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash talab etuvchi axborotdan qochish, yuzaga keldi. Global axborot zamonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishni talab etadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitishning vazifasi: Ommaviy axborot vositalari va media zamonga xos: "raqamli", "kompyuter", "vizual", "texnologik", "kommunikatsion", "media", "axborot", "ommaviy madaniyat" va "texnokratiya" kabi tushunchalarni talaba-yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan holda foydalanish madaniyatini shakllantiradi.

XULOSA

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qish natijasida:

- ma'lumot, muloqot tushunchasi, rivoji va tarixiyliigi;
- media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlarini belgilash;
- axborot manbalari va extiyojlarini aniqlash;
- media savodxonlik va axborot madaniyatini baholash;
- axborot (matn)ni tahlil qilish savodxonligini oshirish;
- axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma'naviy-madaniy immunitetini shakllantirish;
- yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki, o'qib- o'rganishni maqsad qilishi lozim;
- kelgusi faoliyatda media savodxonlik va axborot madaniyatini pedagogik faoliyatida qo'llash usullarini aniqlash;
- milliy axborot xavfsizligini ta'minlash va g'oyaviy immunitetini shakllantirish.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani asosida informatsion madaniyatni rivojlantirishda quyidagi mavzuloar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон номоддий маданий мероси: ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси, 2017. –Б.257.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4-том, –Б.192-193.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. –Б.107.
4. Қуроноф М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фан.док. ... дисс. – Тошкент., 1998. –Б.316.
5. Қуроноф М. Биз англаётган ҳақиқат. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – Б.152.
6. Қуроноф М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Тошкент.: Маънавият, 2013. –Б.320.
7. Қосимова З.Қ. Талаба-ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг педагогик асослари (олий ўқув юртлари маънавий-маърифий ишлари мисолида): Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. Автореф. – Тошкент., 2004. –Б.26.

PEDAGOGIKA

8. Фафуров У. Глобаллашув шароитида ёшларни дин ниқобидаги мафкуравий таҳдидлардан асрашда Интернетдан самарали фойдаланишнинг долзарб масалалари. // “Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати”. Қурулди Кучлар тизимидаги тарбиявий ишлар органлари ҳамда тарғибчилар учун услубий қўлланма. – Тошкент.: Сано-стандарт нашриёти, 2013. –Б.275-286.

9. Фуломов С.С., Алимов Р.Х., Лутфуллаев Х.С. ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлири талабалари учун дарслик Тошкент.: Шарқ, 2000. –Б.592.

10. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ... дис. автореф. –Тошкент., 2012. –Б. 46.

11. Шамсиева М.К. Ахборот-ресурс марказларининг ўқувчи-ёшлар ахборот хавфсизлигини таъминлаш борасидаги асосий вазифалари //Замонавий таълим журнали. 2017, № 2. –Б. 16.

12. Шаумаров Г.Б. Социально-психологические проблемы молодой семьи выпускников специальной школы для детей с задержкой психического развития.:Автореф. дис. ... доктора псих. наук. – Москва., 1990. – С.37.

13. Шодмонова Ш.С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида): Пед. фан. док. ...дисс. – Тошкент.: ТДПУ, 2010. –Б.340.

14. Шоймардонов Т.Т. Педагог кадрлар малакасини ошириши ва касбий фаолияти мониторингини ташкил этишнинг электрон тизими. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... Автореф. – Тошкент., 2017. –Б.52.

15. Шоназаров Қ.Р. Бўлажак тарих ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида тарихий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаш: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент., 2002. –Б.134.

16. Шониёзов Ш.К. Ўзбек халқининг келиб чиқиши. – Тошкент.: Шарқ, 2001. –Б.240.

17. Шукуров А. «Ўзбек» атамасининг келиб чиқиши ҳақида. – Қарши: Насаф, 2010. –Б.176.

18. Евстигнеева Ю.М. Психологические особенности обращения к компьютерным играм в подростковом воз- расте: Автореф.дис.кан.псих.наук. – Москва:, 2003.

19. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент., 2010. –Б.332.

<http://www.edutopia.org/freedom-structurebalance-classroom>

<https://webofknowledge.com>

http://www.centeroko.ru/timss/timss_res.html

<http://www.istedod.uz/>

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

<http://www.lex.uz/>

<http://www.oak.uz/>

<http://www.maqolalar.uz/>

<http://library.tma.uz/>

<http://edu.tma.uz/>